

SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Xodim mehnat ta'tilidan chaqirtirib olindi, ta'tilning foydalanilmagan qismi uchun to'langan ta'til puli nima bo'ladi?

Javobni Farg'ona guman adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Sh.Adashaliyev beradi

Javob: Ma'lumki, Mehnat kodeksining 232-moddasiga asosan mehnat ta'tiliga ketgan xodimni uning roziligi bilan ta'til tugamasidan oldin chaqirtirib olish mumkin. Bilamizki, mehnat ta'tiliga ketayotgan xodimga ta'tilga ketishdan avval ta'tilda bo'ladigan vaqt uchun Mehnat kodeksining 233 va 257-moddalariga muvofiq o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi va bu to'lovni biz ko'pincha "ta'til puli" deb ataymiz. Mehnat kodeksining 233-moddaga ko'ra ta'til puli bu xodimning mehnat ta'tilida bo'lgan vaqt davomida saqlanib qoladigan, biroq oldindan to'lab beriladigan pul hisoblanadi. Ya'ni, agar xodim ta'tildan muddatidan avval chaqirtirib olinsa, ta'tilning foydalanilmay qolgan qismi uchun to'langan pul o'z ahamiyatini yo'qotadi. Chunki, xodim ta'tilda bo'lmash ekan, demak 233-moddadagi o'rtacha ish haqi saqlanib qolinadigan davr ham, bu davr uchun to'lov ham bo'lmaydida.

Ho'sh, unda xodimni mehnat ta'tilidan chaqirtirib olsak, ta'tilning foydalanilmagan qolgan qismi uchun oldindan to'langan "ta'til puli" nima bo'ladi?

Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 17-martda 2985-sod bilan davlat ro'yhatidan o'tkazilgan "Yillik mehnat ta'tili vaqtida saqlanib qolinadigan o'rtacha ish haqi miqdorini aniqlash tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomasi mavjud. Bu Yo'riqnomasi budget tashkilotlari uchun majburiy, qolgan tashkilotlar uchun tavsiyaviy ahamiyatga ega.

Shu Yo'riqnomaning 21-bandida shunday deyilgan:

- xodim ta'tildan chaqirib olinsa va ta'tilning qolgan qismi boshqa muddatga ko'chirilsa, ta'tilning ko'chirilgan kunlariga to'g'ri keladigan to'langan o'rtacha ish haqi summasi bajarilgan ish yoki ishlangan vaqt uchun oylik ish haqi hisobiga yoziladi.

Bu qoidaning mazmuni shuki, agar xodim mehnat ta'tilidan chaqirtirib olinsa va ta'tilning qolgan qismi shu ish yilining boshqa vaqtiga ko'chirilsa, ta'tilning o'sha foydalanilmagan qismi uchun to'langan "ta'til puli" xodimning ta'tildan chaqirib olingandan keyingi ishlagan vaqt uchun to'lanadigan ish haqi o'rniha o'tadi. Ya'ni, xodim keyingi, foydalanilmagan ta'til qismiga teng bo'lgan ishlaydigan vaqt uchun alohida ish haqi olmaydi. "Ta'til puli"ning foydalanilmay qolgan ta'til kuniga to'g'ri keladigan qismi o'sha ish haqining o'rniha o'tadi. Buxgalterlarga osonroq bo'lishi uchun ta'tildan chaqirib olish haqidagi buyruqda buni chiroyli qilib yozib qo'yish kerak.

Bu qoida faqat budget tashkilotlari uchun majburiy qoida hisoblanadi.

Budget hisoblanmagan boshqa ish beruvchilar esa ta'tilning foydalanilmagan qismi uchun to'langan "ta'til puli"ni bu ta'til qismi ish yilining boshqa vaqtida berilgan paytiga hisob-kitob qilsa ham bo'ladi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Instagram](#) | [Youtube](#) | [Telegram](#)

2023-09-30 16:01:18